

Единый портал корпоративной информации

Объявления

"UzAuto Motors" AJ

Объявление

"UZAUTO MOTORS" AKSIYADORLIK JAMIYATI

NAVBATDAN TASHQARI UMUMIY YIG'ILISH

"UzAuto Motors" aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risida

XABARNOMA

Hurmatli aksiyadorlar!

"UzAuto Motors" AJ Kuzatuv kengashining 2024 yil 4 oktabrdagi bayonnomasiga asosan Jamiyat aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2024 yil 25 oktabr kuni 15:00 da o'tkaziladi.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi aksiyadorlar umumiy yig'ilishlarini masofadan turib Internet tarmog'ida onlayn rejimda o'tkazishga mo'ljallangan "Elektron ovoz berish - eVOTE" (<http://evote.uz/>) elektron ovoz berish servisi orqali o'tkaziladi.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun Jamiyat aksiyadorlari reestri 2024 yil 21 oktabr holatiga tuziladi. Ushbu sanada tuzilgan reestrda kiritilgan aksiyadorlar 2024 yil 25 oktabr kuni Jamiyat aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida qatnashadilar.

Jamiyatning joylashgan yeri (pochta manzili): Toshkent shahar, Mirobod tumani, Amir Temur ko'chasi, 13-uy.

Jamiyatning elektron pochta manzili: info@uzautomotors.com

Kun tartibi:

- Jamiyat aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash.
- Jamiyatning 2024 yil 6 oy yakuni bo'yicha olgan sof foydasini taqsimlash, shuningdek dividend to'lash, dividendning miqdori, uni to'lash shakli va tartibi to'g'risida qaror qabul qilish.
- Jamiyatning yangi tahrirdagi tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida ko'rib chiqiladigan materiallar bilan aksiyadorlar Toshkent shahar, Mirobod tumani, Amir Temur ko'chasi, 13-uy manzilida joylashgan Jamiyatning bosh ofisi binosida 2024 yil 4 oktabrdan 24 oktabrgacha, ish kunlari soat 10:00 dan 15:00 gacha tanishishlari mumkin.

Aksiyadorlar <http://evote.uz/> (<http://evote.uz/>) internet saytining elektron ovoz berish servisi orqali yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar ro'yhatiga kiritilganligi haqida elektron xabar olgan vaqtdan boshlab Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida ishtirok etuvchi aksiyadorlar sifatida ro'yhatdan o'tgan deb hisoblanadi.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida elektron ovoz berish servisi orqali ishtirok etish qoidalari (shartlari) bilan <http://evote.uz/> (<http://evote.uz/>) saytida tanishib chiqishingizni so'raymiz.

Telefon: 78 140-55-40 (3-1733 va/yoki 1727#)

Jamiyat Kuzatuv kengashi.

04.10.2024

Источник: <https://openinfo.uz/announce/18114/>

Дата: 21.05.2026